

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA (KATTA GURUH)
GEOMETRIK SHAKLLARNI O'RGATISH METODLARINI
TAKOMILLASHTIRISH.**

*Samarqand davlat pedagogika
instituti dotsenti **E.M.Mardonov**
Samarqand davlat pedagogika instituti
assistenti **Sh.N.Raximov**
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich magistranti
O'.G.Turobova
gulmirashukrullayeva4@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda geometrik shakllar haqida bilim berishning zamonaviy metodlari yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun interfaol, o'yin asosidagi va STEAM yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar taqdim etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы обучения геометрическим фигурам детей старшего дошкольного возраста. Особое внимание уделено развитию пространственного мышления и познавательных способностей посредством игровых и интерактивных технологий.

Annotation. This article examines modern teaching methods for introducing geometric shapes to preschool children. It highlights the importance of using play-based and STEAM approaches to enhance spatial and logical thinking skills.

Kalit so'zlar: Geometrik Figuralar, Geometrik Tasavvurlar, To'rburchak, Doira, Ta'limiy Metodlar Maktabgacha ta'lim, geometrik shakllar, katta guruh bolalari, geometrik tasavvurlar, fazoviy tafakkur, didaktik o'yinlar, sensor-integrativ yondashuv, STEAM ta'limi, innovatsion pedagogik metodlar, matematik mashg'ulotlar.

KIRISH: Geometrik figuralar bilan tanishish bolalarning aqliy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning fazoviy tafakkuri, kuzatuvchanligi va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Matematik mashg'ulotlarda esa bolalar eng soddaga geometrik figuralar bilan, ularning ba'zi xossalari bilan tanishadilar, buyumlarni geometrik shakllar bilan taqqoslash asosida ularning shaklini baholash va tahlil qilishni o'rganadilar. Bolalarda asta – sekin shakl haqidagi umumiy tasavvur

shakllanadi, bunday tasavvur maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarning yaxshi o'zlashtirilishi uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarni oshirish dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda bolalarning tasavvurlarini shakllantirish ularning tafakkur va idrokini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari va pedagoglar oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali bu yo'nalish shakllantirilmoqda. Bolalarga geometrik shakllarni o'rgatish ularning atrof-muhitdagi buyumlar bilan bog'liq tushunchalarini kengaytiradi. Vigotskiy va Piaget ta'kidlaganidek, bilish faoliyati o'yin orqali shakllanadi. Shuning uchun shakllarni o'rganish jarayonida ko'rgazmali vositalar, predmetli o'yinlar va tajriba asosidagi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Misol uchun: Bolalarning geometrik shakllardan doira va kvadrat haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash uchun <<Doirani o'ng qo'lingga ol>>, <<Kvadratni chap qo'lingga ol>>, <<Qo'lingda turgan narsaning nomini ayt>>, kabi topshiriqlar, shuningdek <<Topchi, xaltada nima bor>>, <<Juftini top>> kabi o'yinlardan foydalanish mumkin.

Geometrik shakllarni o'rgatishda Innovatsion metodlar va amaliy yondashuvlar haqida fikr yuritsak innovatsion yondashuvlar sifatida STEAM ta'lim modeli (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) orqali bolalarda geometrik shakllarni hayotiy misollar asosida o'rganish imkoniyatini yaratish mumkin. Montessori metodikasi esa bolalarning mustaqil harakatlari orqali bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. O'yin asosidagi topshiriqlar — "Shaklni top", "Shaklni joylashtir", "Shakllar olami" kabi mashg'ulotlar esa bolalarning qiziqishini kuchaytiradi. Bolalarni buyumlar va ularning tasvirlari haqidagi tushunchalarini rivojlantirish hamda tasavvurlarini moslashtirish uchun mashq qildirish o'yinlaridan ham foydalanish mumkin. Bolalar geometrik figuralarni, har qanday buyumni ongida, masalan; koptokni, g'ishtni, uyni, atrofni qanday o'ylasalar, ya'ni tushunsalar, bola ongida shunday idrok qiladilar. Bundan tashqari, interfaol o'yinlar orqali o'rganish bolalarda geometrik shakllarni eslab qolish va farqlash qobiliyatini oshiradi. Pedagoglar uchun muhim tavsiya shuki, har bir mashg'ulotda bolalarning mustaqil fikrini rag'batlantiruvchi savollar, topishmoqlar va amaliy vazifalar bo'lishi zarur.

Katta guruh yoshidagi bolalarda geometrik shakllarni o'rgatish. Katta guruh yoshidagi bolalarda geometrik shakllarni o'rgatishda, bolalarga shakllarning har xil bo'lishi haqida tasavvur hosil qilishi, masalan ;<<Katta doira –kichik doira , katta to'rtburchak ,kichik to'rtburchak >>, kabi.

Katta guruh yoshidagi bolalarining shakl va uning ayrim belgilari haqida tasavvur hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bolalarda shar, kub silindrlar haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash va ular yordamida turli mavzularning loyihalarini yaratish.

Doira va oval shaklini farqlashga doir turli mashqlarni bajarish. Bolalar ongida qurshab turgan narsalarni tanish, bir –biridan ajratish, ularning geometrik shaklini aniqlab, bir-biridan farqlash kabi qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Masalan: bu shakllardan, <<Quyosh, non, oy, yer>>, doiraga o'xshaydi. Stol usti, eshik, xona, derazalar shakli esa to'rtburchak shaklida ekanligini bolalar o'rganib idrok qilib boradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni, jumladan geometrik shakllarni o'rgatishda ham ta'limning asosiy prinsiplari mavjud.

Ilmiylik prinsipi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganilayotgan bilimlarning fanda qanday yoritilgan bolsa, amaliy jarayonlarda ham shunga mos bo'lishini talab etadi. Umumiy aytganda biz ilmiylik haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda berayotgan bilimimiz mazmuni ilmiylik asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Tarbiyaviylik prinsipi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar uchun boshlang'ich bilim maskani hisoblanadi. SHu bois ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va tarbiyaviy bo'lishi muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda geometrik tasavvurlarni shakllantirishda bolalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish uchun turli metodlardan foydalanish orqali bolalarning bilimlarini o'zlashtirishga bo'lgan harakatini qo'llab-quvvatlash, bolalardagi mustaqil izlanuvchanlikni ortirish uchun ham xizmat qiladi va bunda tarbiyaviylik prinsipi muhim o'rin tutadi.

Bu prinsip maktabgacha yoshdagi bolalarda, ziyraklik, topqirlik aqllilik xislatlari bilan birga Vatanga muhabbatni hamda rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini matematik mashg'ulotlar asosida ham tarbiyalash mumkunligini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik prinsipi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining tez va aniq rivojlanishida atrof-muhit shu bilan birgalikda metodlar bilan bog'liq ko'rgazmali qurollar ham muhim o'rin tutadi. Bolalarda matematika mashg'ulotlarining asosiy maqsadi ham bolalardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat. Bu mashg'ulotlar ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda geometrik shakllarni o'rgatish metodlarini takomillashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Innovatsion va o'yin asosidagi yondashuvlar bolalarda mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu bois ta'lim jarayonida interfaol metodlarni keng qo'llash zarur. Katta guruhga kelguncha bolalarda yetarlicha katta sensor tajriba to'plangan va shakllarni bilish, tanish va his qilish ko'nikmasi shakllangan hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini boyitish va o'rta guruhda o'ratilgan bilimlarini takrorlash uchun turli materillardan foydalanishi mumkin. O'rta guruhdagi bilimlar takrorlangandan so'ng, ularga atrofda buyumlardan geometrik shakllarni ya'ni doira, uchburchak kvadrat shakllarini topishni va ular haqida qisqa izoh berish ko'nikmasini ham shakllantirishi

mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga geometrik shakllarni o'rgatishda bir qancha metodlardan foydalaniladi. Misol uchun:

Geometrik shakllarni o'rgatishda an'anaviy metodlar.

Katta guruhda geometrik shakllarni o'rgatishda qo'llanilib kelinayotgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat: namunaviy obyektlarni ko'rsatish orqali o'rgatish; kartochkalar bilan ishlash; taqqoslash va guruhlash mashqlari; tabiiy predmetlar asosida shakllarni ajratish; rasm chizish orqali shakllarni mustahkamlash.

Bu metodlar ta'lim jarayonida samarali va keng qo'llanilsada hozirgi zamon talabiga ko'ra ularni yanada takomillashtirish talab etiladi.

Takomillashtirilgan metodlar: Bu metodlar bolalarda mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otadi va ta'lim jarayonini yanada samarali bo'lishiga yordam beradi.

Sensor-integrativ yondashuv. Bu yondashuvda bola shakllar ko'radi, qo'l bilan ushlab his qiladi, uni o'z harakatlari bilan ifodalaydi.

Natijada bola ongida geometrik shakllar haqida tasavvur paydo bo'ladi va ular haqidagi ma'lumotlarni to'liq anglaydi.

STEAM yondashuvi: Bu yondashuv asosida bola beshta soha bo'yicha mukammal rivojlanadi, va geometrik shakllarni turli, qiziqarli yo'llar va metodlar yordamida o'rganadilar. STEAM yondashuvida bola; geometrik shakllarni; qurish-yasash ishlarini. LEGO, qog'oz buklash (Origami) asosida geometrik tasavvurlar hosil qilinadi.

Didaktik o'yinlar: Maktabgacha yoshdagi bolalarda geometrik shakllarni o'rgatishda, umuman olganda ta'lim jarayonida o'yin orqali o'rgatish eng samarali yo'nalish sanaladi.

Xulosa: Maktabgacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa katta guruh tarbiyalanuvchilarida geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ularning intellektual, mantiqiy va fazoviy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion, interfaol, o'yin asosidagi hamda STEAM yondashuvlari qo'llanilganda ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshishi aniqlandi. Geometrik shakllarni ko'rgazmalilik, sensor-integrativ yondashuv va didaktik o'yinlar orqali o'rgatish bolalarda bilimlarni mustahkam, ongli va qiziqarli tarzda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon bolalarning mustaqil fikrlashi, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Katta guruh yoshidagi bolalar uchun shakllarning o'lchami, turi va fazoviy joylashuvini farqlashga qaratilgan mashqlar ularni maktab ta'limiga puxta tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geometrik shakllarni o'rgatishda pedagog tomonidan metodlarning to'g'ri tanlanishi, mashg'ulotlarning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirishda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bois maktabgacha

ta'lim amaliyotida innovatsion metodlardan keng foydalanish, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. –Toshkent:O‘zbekiston,2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016 yil
3. Bikbayeva N.U., Ibragimova Z.I., Qosimova X.I. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995 yil.
4. Usmanova M.T. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi”. – Toshkent, 2007 yil.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – 2013 yil
6. E.M. Mardanov. “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi”. –Samarqand, 2021 yil.
7. I.S. Isroilov, E.M. Mardanov, Q. Ostons. “Matematika”. – Samarqand, 2019 yil.
8. E.M. Mardanov, Q. Ostons. “Matematik mantiq”. – Samarqand, 2018 yil.